



## Social Protection Status of Persons with Disabilities in Fergana Valley: Problems and Consequences

**Mukhsin Moydinovich Kholmatov**

Senior teacher of the "History" department, Kokand State Pedagogical Institute

**Rahmonov Elyor Abdullajonovich**

Teacher of the "History" department, Kokand State Pedagogical Institute

**Abstract:** *The article describes the legal foundations, material and moral factors of the social support system for the disabled in Uzbekistan, the existing problems in this area, as well as the practical results of measures to address them using the example of the Ferghana Valley.*

**Keywords:** *disability, rehabilitation, disabled children, low-income population, social problems, special boarding schools, sanatoriums.*

O'zbekistonda kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga muntazam ravishda keng qamrovli islohatlar asosida yordam berib kelinmoqda. Ana shunday ishlar samarasi o'laroq "O'zbekiston Respublikasida 1996-2000 yillarda nogironlarni reabilitatsiya qilish Davlat Dasturi"ni joriy etilishi ham bu borada amalga oshirilgan muhim qadamlardan biri bo'ldi. Respublika bo'yicha 1996 yilda jismoniy va ruhiy jahatdan nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun 75 ta maxsus maktab internatlari mavjud bo'lib, ularda 16 mingga yaqin nogiron bolalar ta'lim va tarbiya olish bilan birga maxsus tibbiy xizmatlardan ham foydalangan[1.8-ro'yxat, 88-jild, 87-varaq]. Bu jarayonlar vodiylar viloyatlarida ham muntazam davom etib, har qanday masaladan bu sohani rivojtantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 1996 yili Andijon shahrida Farg'ona vodiysida yagona bo'lgan tibbiy va ijtimoiy muammolar bilan shug'ullanuvchi Respublika ilmiy tekshirish institutining filiali tashkil qilingan. SHuningdek, ushbu yilda viloyatda 984 nafar nogiron va pensionerlar Respublikaning turli dam olish sihatgohlarida salomatligini tiklab qaytgan. Protez mahsulotlariga muhtoj nogironlar uchun 2897,1 ming so'mlik protez buyumlar tayyorlab berilgan[1.8-ro'yxat, 88-jild, 96-varaq]. Shuningdek, 1998 yilda viloyatdagi jami 100 nafar nogironlarga eshitish moslamalari berilib, 570 nafar nogironlarga esa qo'litiqtayoq va xassa tarqatildi hamda 91 nafar nogironlarga maxsus aravachalar sovg'a qilindi[1.13-ro'yxat, 97-jild, 57-varaq]. Andijon viloyat hokimligining 2004 yil 6 iyundagi 40-sonli farmoyishiga asosan viloyatda nogironlar aravachasi hamda eshitish moslamasiga muhtojlikni to'la bartaraf qilish maqsadida markazlashgan holda mazkur vositalarni sotib olish va nogironlarga berish uchun 35 million so'm miqdorda mablag' ajratilib, 297 dona nogironlar aravachasi va 200 dona eshitish moslamasi olib kelingan hamda muhtoj nogironlarga ro'yxat asosida topshirilgan[2.29-ro'yxat, 33 a-jild, 214 -varaq].

Lekin yuqorida ta'kidlangandek, bu hayriya ishlarni ayrim mahalliy mansabdorlar o'z vaqtida bajarilishiga to'sqinlik qilishga harakat qilgan. Jumladan, 1997 yil yanvar oyida "O'zbekiston Respublikasida 1996-2000 yillarda nogironlarni reabilitatsiya qilish Davlat Dasturi to'g'risida"gi hukumat qarorining ijrosini ta'minlash va nazorat etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika ishchi guruhi o'rghanish natijasida Farg'ona viloyatida tserebral falaji va poliomielit asorati bo'lgan nogiron bolalar uchun 1996-1999 yillar mobaynida tiklash markazlari tashkil etish rejlashtirilgan va lekin bu borada Farg'ona viloyatida biron bir ish qilinmaganligi aniqlangan[3.1-ro'yxat, 781-jild, 168-varaq]. Ammo, viloyatda soha taraqqiyoti uchun qilingan ishlar salmoqli



bo'lib, bu kabi juz'iy xatolarni to'ldirib ketmoqda. Masalan, viloyatda "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi chora-tadbirlarining ijrosini ta'minlash borasida nogironligi oqibatida mактабга borish imkoniyatiga ega bo'lмаган 5-9-sinflardagi jami 5 nafar bolalar kompyuter sovg'a qilingan[4.18-ro'yxat, 7-jild, 39 -varaql]. Shu bilan birga viloyatda 2008 yil bo'yicha protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiyaning texnik vositalariga muhtoj nogironligi mavjud shahslardan nogironlar aravachasiga muhtoj 92 nafaridan 62 nafari, eshitish moslamasiga muhtoj 43 nafaridan 27 nafari, qo'lтиq tayoqqa muhtoj 36 nafar, xassaga muhtoj 62 nafar, protez ortopediya mahsulotlariga muhtoj 198 nafaridan 42 nafari zurur vositalar bilan ta'minlangan[4. 21-ro'yxat, 2-jild, 150 -varaql].

O'zbekiston Respublikasida 2016 yildan so'ng keng qamrovli islohatlar amalga oshirila boshlandi va bu mamlakat birinchi prezidentining amalga oshirgan ilgargi ishlarini davomi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi kam ta'minlangan va ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga yodram berish ham yangi pog'onaga ko'tarildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi tadbirlarini tobora amalga oshirish maqsadida Respublika Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrda qabul qilingan "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3268-sonli Qarori[5] ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'lab-quvvatlash tizimining yangi bosqichini boshlab berdi.

O'рганилган davr mobaynida yuz bergan kamchiliklar natijasida hozirgi kunda bir qator muammolar vujudga kelib kolganligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 1 avgustdagи № F-5006, "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishida ko'rsatib o'tilgan. Unda ta'kidlanishicha, "Mamlakatimizda keksalar, pensionerlar, nogironlar va imkoniyati cheklangan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordamni tashkil etish tizimi yaratildi. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biri sifatida belgilangan. SHu bilan birga mazkur sohada olib borilayotgan ishlarni qoniqarli deb bo'lmaydi"[6]. Demak mazkur sohada hozirgi kunda ham bir qator muammolar bo'lib, uni bartaraf etish uchun hukumat darajasida hal etilmoqda.

Shuningdek, 2017 yilda 11 ta tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, 15 ming nafar yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tibbiy-ijtimoiy yordam bilan qamrab olindi va qariyb 21 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslar reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlandi, 35 ming nafar shaxslar sanatoriyalarda sog'lomlashdirish kurslaridan o'tdi, 20 ming nafardan ziyod shaxsga reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek- "Ayni vaqtida nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolarini, boquvchisini yo'qotganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi kerak. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag'ishlagan onalar uchun alohida ijtimoiy nafaqa turini joriy etamiz"[7].

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, Respublikamizda ijtimoiy siyosatning muhim ahamiyatga ega ekanligi nafaqat iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga bog'liq, balki xalqning ma'naviy qadriyatlariga asoslangan sog'lom avlodni tarbiyalash, ko'p bolali oilalarga madad berish, qariyalarga g'amxo'rlik qilish, nogironligi mavjud shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham bu borada samarali ishlar amalga oshirilib, aholini kam ta'minlangan oilalari va ijtimoiy ko'makka muhtoj qismiga har jihatdan yordam berib kelindi. Mamlakatda mustaqillikning dastlabki kunlaridan mazkur sohaga katta e'tibor berilib, u turli xuquqiy hujjalalar bilan asoslanib borildi. Xususan, 1991 yil byudjetining ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan mablag'i 1990 yilga nisbatan 164 mln. so'mga yoki 44 foizga oshib 536,5



mln. so'mni tashkil etganining o'zi ham buning sohaning dolzarb ekanligini anglatadi. Buning ta'siri doirasida Farg'ona viloyatida 1991 yilning o'zida davlat byudjeti eng zarur ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilganligi va uning xarajat qismining 94,9 foizi ijtimoiy iste'molini qondirishga sarflanganligini alohida qayd etish joiz. Bu kabi jarayonlar Namangan va Andijon viloyatlarida ham yaqqol namoyon bo'lib, ijtimoiy soha har jihatdan qo'llab-quvvatlandi. O'r ganilayotgan davr oralig'ida Farg'ona vodiysi viloyatlarda mazkur soha rivojlanib, jamiyatning eng muhim bo'g'iniga aylanganligini ko'rish mumkin. So'ngi yillarda esa bu sohaga alohida ahamiyat qaratilib, xukumat darajasida e'tibor berilmoqda. Mamlakat rahbarining 2019 yil 21 noyabrda aynan ijtimoiy masalalarga bag'ishlarga yig'ilishni o'tkazishi va bu sohani rivojlantirish uchun yangidan-yangi xuquqiy normalarni ishlab chiqilishi katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Arxivi Andijon viloyati bo'limi, 4141 – fond.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Arxivi Andijon viloyati bo'limi, 4149 – fond.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi, M-15 – fond.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni Arxivi Farg'ona viloyati bo'limi, 2048 – fond.
5. <https://lex.uz/docs/3338162>
6. <https://president.uz/uz/lists/view/847>
7. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
8. Elyor Abdullajonovich Rahmonov and Mukhsin Moydinovich Kholmatov. "THE PROCESS OF PROVIDING THE POPULATION WITH HOUSING IN THE SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION IN UZBEKISTAN.(In the case of the Fergana Valley, 2016-2020)." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.10 (2022): 346-350.
9. Rahmonov E.A., Kholmatov M. M. THE SIGNIFICANCE OF YOUTH SUPPORT IN THE PROCESS OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 10. – C. 337-342.
10. Rakhmonov E. THE IMPORTANCE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN PROVIDING YOUTH EMPLOYMENT IN UZBEKISTAN //Конференции. – 2021.
11. Мамуров М., Мамадалиев А. ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫЕ ОТНОШЕНИЙ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА В XVIII-XIX ВЕКАХ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2018. – №. 5-10. – С. 134-136.
12. Мамуров М. ҚЎҚОН ХОНЛИГИДАГИ ЕР-СУВ МУНОСАБАТЛАРИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 2.
13. Маъмурев М. М. РУС ШАРҚШУНОСЛАРИ АСАРЛАРИДА ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ХЎЖАЛИГИ ТАРИХИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 4. – С. 341-346.
14. Мамуров М. М., Хамрақулов С. С. SOME OPINIONS ABOUT AGRICULTURAL ISSUES OF KOKAND KHANATE IN THE WORKS OF RUSSIAN ORIENTALIST HISTORIANS



//Научная дискуссия: вопросы социологии, политологии, философии, истории. – 2017. – №. 4. – С. 87-92.

15. Akbarov Q. TRADE RELATIONS BETWEEN KOKAND KHANATE AND EASTERN TURKEY //Talqin va tadqiqtolar ilmiy-uslubiy jurnalı. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 4-8.
16. Акбаров К. “SADOI FERGANA” NEWSPAPER COVERAGE OF LOCAL ENTREPRENEURS IN THE EARLY XX CENTURY: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1244> //RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES. – 2021. – №. 18.05.
17. Bozorov, O. O. "Implementation of the National Policy of the Former Soviet State in the Ferghana Valley." Web of Scholars: Multidimensional Research Journal 1.8 (2022): 59-62.
18. Bozorov, O. O. . “Deportation of Meskheti Turkish People: Its Causes and Consequences”. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, vol. 1, no. 2, Dec. 2022, pp. 87-89.
19. Bazarov, O. O., and Sh Kholdarov. "SOCIAL IMPACTS FROM THE FORMER SOVIET NATIONAL GOVERNMENT POLICY." Ученый XXI века 4-2 (2016): 11-13.
20. Esonov Z., Amanov A. FROM HISTORY OF THE CRAFT OF THE FERGHANA VALLEY.(AT THE END OF XIX AND EARLY XX CENTURY) //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 09. – С. 214-220.
21. Esonov Z., Amanov A. THE HISTORY OF KNIFE PREPARATION CRAFTSMANSHIP IN THE FERGANA VALLEY //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 09. – С. 221-227.
22. Ҳамрақулов С. С. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PERIODICAL PRINTING IN FERGANA REGION //Научная дискуссия: вопросы социологии, политологии, философии, истории. – 2017. – №. 6. – С. 50-55.
23. Ҳамрақулов С. С. ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ИРРИГАЦИЯ ТИЗИМИ ВА УНИ ЎРГАНИНИЛИШИДА РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИ МАЪЛУМОТЛАРИНИНГ АКС ЭТИШИ //Научная дискуссия: вопросы социологии, политологии, философии, истории. – 2017. – №. 6. – С. 45-49.